

AESTHETIC FUNCTION OF ARTISTIC REPEATMENT

Kudaybergenova Gulparshin Polatbaevna

PhD student at Karakalpak State University named after Berdakh

kudaybergenova_g@karsu.uz

Abstract. *The article shows the importance of artistically actualized repetitions, which are one of the objects of study of linguopoetics, in ensuring the emotional expressiveness of a work of art. In the linguapoetic analysis of a literary text, logical concepts consisting of anaphora and epiphora are based on literary repetitions. The article analyzes these concepts using the example of poems by Ibraim Yusupov.*

Key words: *linguopoetics, actualized, artistic repetition, anaphora, epiphora, synonym, antonym, expression of meaning, aesthetic task, main repetition.*

ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПОВТОРЕНИЯ

Абстрактный. *В статье показано значение художественно актуализированных повторов, которые являются одним из объектов изучения лингвопоэтики, в обеспечении эмоциональной выразительности художественного произведения. В лингвопоэтическом анализе художественного текста логические понятия, состоящие из анафоры и эпифоры, основаны на художественных повторах. В статье анализируются эти понятия на примере стихотворений Ибраима Юсупова.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, актуализированный, художественный повтор, анафора, эпифора, синоним, антоним, выражение смысла, эстетическая задача, главный повтор.*

BADIIY TAKRORNING ESTETIK VAZIFASI

Annotatsiya. *Maqolada lingvopoetikaning o'rganish obyektlaridan biri bo'lgan badiiy aktuallashgan takrorlarning badiiy asar emotsional ekspressivligini ta'minlashdagi ahamiyati xususidagi fikrlar bayon qilingan. Badiiy matn lingvopoetik tahlil qilinganda badiiy takrorlar asosida anofora, epiforadan iborat mantiqiy tushunchalar yotadi. Maqolada ushbu tushunchalar Ibrayim Yusupov she'rlari misolida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, aktuallashgan, badiiy takror, anafora, epifora, sinonim, antonim, ma'no ko'chimlari, estetik vazifa, o'zakli takror.*

Tilning estetik vazifasini o'rganish hozirgi kunda tilshunoslar oldida turgan eng dolzarb muammoni hal etish bilan barobar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki, badiiy adabiyot tili ham kommunikativ, ham estetik vazifani bajaradi. Badiiy nutqning estetik vazifani bajarishini shu nutqning o'ziga xos muhim belgisi deb hisoblash mumkin. Badiiy matndagi ta'sirchanlik yuqori darajasi, ko'lamdorligi bilan xarakterlanadi.

Matnni yanada yorqinroq, ta'sirliroq, ravonroq qiladigan vositalarning hammasi ekspressiyadir. Ekspressiya kitobxonda yoki tinglovchida berilgan fikrdan kifoyalaniş yoki ta'sirlanish, zavqlanish yoki hayajonlanish, qayg'urish yoki xursand bo'lish kabi emotsional holatlarning paydo bo'lishi bilan ko'zga tashlanib turadi.

Takror uslubiy vosita sifatida badiiy asarda qahramonlarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini konkretroq ifoda etish uchun ishlatiladi.

Takrorning asosiy vazifasi nutqni ta'sirchan qilish, fikrni konkretlashtirish va unga tinglovchi diqqatini tortishdir. Takrorning sintaktik - stilistik xususiyatlari haqida tilshunoslardan I.M.Astafe va, M.N.Adilovlar maxsus monografik tadqiqotlar olib borganlar. Takror nutqning og'zaki shakli xususiyatiga asoslangan sintaktik stilistik vosita bo'lib, bu hayajonli holatni ifodalash maqsadida qo'laniladi. Takror va uning stilistik funksiyasi haqida professor A.Mamajonov fikr yuritib, uning fonetik takror, leksik takror, morfologik takror, sintaktik takror ko'rinishlari borligini, bunday takror tiplari xalq og'zaki ijodi materiallari, badiiy va publisistik asarlar tilida juda keng qo'llanishini bayon qilgan.

Bu holat sintaktik-stilistik figuralar analizi uchun boy material bo'lib hisoblanadi, hamda takror bo'yicha alohida va muhim tekshiruvlar olib borish, tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatini tug'diradi" deb takror hodisasining nihoyatda dolzarbligini ko'rsatadi.

Misra yoki gap bo'lagining boshida kelgan takror anafora deyiladi² yoki boshqacha aytganda, paralel tuzilgan nutq parchalari boshida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figura. Bu stilistik figuradan his hayajon, ko'tarinki ruh bilan aytiladigan nutq shakllarini yaratish uchun foydalaniladi.

Gap oxirida kelgan takrorlar yoki boshqacha aytganda, she'riy asarlarda so'zlar va misralar oxirida ifodalikni kuchaytirish uchun ayr im unli va undosh tovush takrorlanadi. Bunga tovush nihoyasi yoki epifora deyiladi.¹

Takrorlanuvchi birliklar o'ziga xos doira hosil qilib, parchaning boshida ham kelishi mumkin. Bunday takror halqasimon takror deb ataladi.

Takrorning yana bir ko'rinishi topilma takror birinchi misraning oxirida kelgan muayyan so'z ikkinchi misraning boshida takrorlanib keladi.

Takrorning o‘zakli takror deb nomlangan turi ham mavjud. Uning mohiyati shundaki, unda so‘z aynan takrorlanadi, biroq ularning biridagi qo‘shimcha qism takrorlanmaydi.

Takrorning navbatdagi turi sinonimik takror bo‘lib, unda bitta tushunchani ifodalash uchun sinonimik, ya‘ni ma‘nosi bir biriga yaqin bo‘lgan vositalar qo‘llaniladi. Ushbu holatda obyektiv sinonimlar qo‘llanilishi shart emas.

O‘z izlanishlarimiz borisida qoraqalpoq adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan shoir Ibroyim Yusupovning ijodidagi badiiy takrorlarning asosiy vaziyfasi fikrni o‘quvchiga yanada bo‘rttirib ko‘rsatish uchun tasvirlanayotgan jarayonni yoki narsani bir necha marotaba she‘r satrlari boshida, o‘rtasida va oxirida takrorlab ko‘rsatib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Sen kabi mavj urib oqmasa **shoir**,
Xalq qalbiga yo‘lni topmasa **shoir**,
Shoirman deb chirangani bir puldir,
Hozir shuni o‘ylab qoldim, Kegayli.

(I. Yusupov. Kegeyli Shuhrat tarjimasi)

Shoir ijodida epifora jarayoni bir nechta ko‘rinishda uchraydi. Ayniqsa bir so‘z she‘r qatorlarining dastlabki uch satrida takror kelishi she‘rning ta‘sirchanligini oshirish xizmatida kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan :

Sen ketganda tishda yurib **edim men**,
Ketishingni qaydan bilib **edim men?**
“Qayga borasan” deb hurib **edim men:**
Tovshimni eshitmay qolding, Oyjamol!

(I. Yusupov. Yo‘llidan salom Qoraqalpoq tilidan Oydin Hojieva tarjimasi)

Asil gavhar, zari **ham bor**,
Aptekda yo‘q dori **ham bor**,
Puling bo‘lsa, bori **ham bor**,
Pulsiz ko‘zning qizari ko‘p.

(I. Yusupov. Bozor Qoraqalpoq tilidan Oydin Hojieva tarjimasi)

O‘rik gu‘llaganda kelmading **yorim**,
Olma gu‘lin bersam, olmading **yorim**,
O‘zga og‘ochda gu‘l qolmadi, **yorim**,
Tongning shafag‘iday anor gu‘lladi.

(I. Yusupov. Anor gu‘lladi Qoraqalpoq tilidan Ochil Tohir tarjimasi)

Xulosa qilib aytganda, badiiy takrorlar I.Yusupov asarlarida juda ko‘p qo‘llanilgan jarayon ekanligini anglash mumkin. U faqatgina she‘r tasirchanligini, emocionalligini oshirib qo‘ymasdan, she‘r irmog‘ini va qolaversa o‘xshashini shakllantirib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mamajonov A. *Tekst lingvistikasi*. - T.: Fan, 1989
2. Hojiyev A. *Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati*. T.: O‘qituvchi, 1985.
3. Hojiyev A. *Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi*. T.: O‘qituvchi, 1979.
4. Hikmatullo Do‘smatov *Askiya matni lingvolistikasi* Fan nashriyoti T- 2015
5. Abduazizov. A. *Tilshunoslik nazariyasiga kirish*. - T.; “Shapq nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2010. -B.175
6. Shofqarov A.M. *O‘zbek tilida badiiy takror*. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
7. Mamajonov A. *Takror va uning sintaktik-stilistik funksiyasi//O‘zbek tili va adabiyoti*.1978.№3 B.60
8. Kosimbetova Aygul Yesbosimovna. *Poetic Service of syntactic constructions in the works of Saginbay Ibragimov*.Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities.2023.p.142-145.
9. Qosimbetova Aygul. *Anafora va epiforaning lingvopoetik o‘ziga xosligi* (T. Jumamurodovning ijodi namunasida).Замонавий таълимда рақамли тизимларни куллаш:филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари. Тошкент. 2021. 119-121
10. www.arxiv.uz
11. www.ziyouz.uz/jahon-sheriyati/qoraqalpoq-sheriyati/ibroyim-yusupov-2/